



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

40-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori ijrosi haqida”gi 30-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, shuningdek, mas’ul davlat organlari va tashkilotlarining respublika mahallalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini 2025-yilda sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvardagi 30-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvardagi 30-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas’ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilanganligi va quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etilganligi:

2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla–tuman–viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlarni birlashtirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o‘rganishlarni o‘tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo‘layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko‘rish;

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda “mahalla yettiligi” har bir vakilining aniq mas’uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo‘yicha har bir mas’ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat’iy so‘rov tizimini yo‘lga

qo'yish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralari ko'rib borish;

Quyidagilar:

2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda yangicha yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini tashkil etish bo'yicha viloyat darajasidagi manzilli chora-tadbirlarning namunaviy "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq;

Tuman (shahar) mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarning namunaviy "yo'l xaritasi" 3-ilovaga muvofiq;

Mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarning namunaviy "yo'l xaritasi" 4-ilovaga muvofiq;

2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar (keyingi o'rinlarda – maqsadli ko'rsatkichlar) 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Ichki ishlar vazirligiga tegishli idoralar hamda ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda uch hafta muddatda har bir hudud va kriminogen vaziyat og'ir mahalla kesimida mazkur qarorga asosan, 2025-yil birinchi choragi uchun hududiy "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va ijroga qaratishni ta'minlash yuklatilganligi;

Dastur va hududiy "yo'l xaritalari"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan mas'uliyat davlat organlari, muassasalari va mahalliy hokimliklarning shaxsan birinchi rahbarlariga yuklatilganligi;

Bunda har bir markaziy davlat organi va muassasa rahbari tomonidan Dastur va hududiy "yo'l xaritalari" ijrosi ustidan doimiy va ta'sirchan idoraviy nazorat o'rnatilishi;

Huquq-tartibot idoralarining ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari tomonidan jinoyat sodir etilgan mahallalarda 6-ilovaga muvofiq tartibda ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishlar o'tkazilishi;

Bunda bevosita joylarga chiqqan holda:

jinoyat sodir etilayotgan mahallalardagi kriminogen vaziyatga ta'sir qilayotgan asl omillarni o'rganish hamda ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, manzilli profilaktika tizimini yo'lga qo'yishga qaratilgan ilmiy asoslantirilgan takliflarni 2025-yilning ikkinchi choragi uchun ishlab chiqiladigan hududiy "yo'l xaritalari"ga kiritish;

mahallalardagi kriminogen vaziyatga ta'sir qilayotgan asosiy omillarni hisobga olgan holda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, buning natijalari yuzasidan birlashtirilgan ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalaridan sohaga mas'ul idoralar bilan teng ravishda so'rov qilish choralari ko'rilishi;

Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda Dastur va hududiy "yo'l xaritalari"ning ijrosini tizimli ravishda nazorat qilib borish maqsadida Bosh prokuratura huzurida 2025-yil mobaynida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Respublika idoralararo muvofiqlashtirish ishchi guruhi (keyingi o'rinlarda – Muvofiqlashtirish ishchi guruhi) tuzilganligi;

Muvofiqlashtirish ishchi guruhiga:

mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislarini jalb qilgan holda Muvofiqlashtirish ishchi guruhi tarkibini shakllantirsin va 2025-yilda mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi borasidagi ishlarning natijadorligini, shu jumladan, joylarga bevosita chiqqan holda tizimli monitoring qilib borish hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati ustidan nazoratni ta'minlash;

Dastur va hududiy "yo'l xaritalari"da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning izchil, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini hamda huquq-tartibot idoralarining ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari tomonidan joylarda amalga oshirilayotgan o'rganishlar va ularning natijadorligini doimiy ravishda qat'iy nazorat qilib borish;

har oy yakunida kriminogen vaziyat og'ir va jinoyat sodir etilgan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarning ahvoli va natijadorligi bo'yicha barcha mas'ul idora va muassasalar bilan tanqidiy muhokamalar o'tkazilishini hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan ta'sir choralari ko'rib borilishini yo'lga qo'yish vazifalari topshirilganligi;

Belgilanishicha, kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish hamda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida barcha tuman (shahar) sektor rahbarlariga, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati boshliqlariga va ichki ishlar organlari boshliqlari o'rinbosarlariga (keyingi o'rinda – mas'ul rahbarlar)

2025-yilda mahallalar nomma-nom biriktiriladi;

Bunda shunday tartib o'rnatilishi, unga muvofiq:

mas'ul rahbarlar zimmasiga o'z hududlarida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish namunasini yaratish, hududiy "yo'l xaritalari"ning to'laqonli ijro etilishini ta'minlash hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha qat'iy shaxsiy javobgarlik yuklanishi;

mas'ul rahbarlarning kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda erishilgan natijalari ularning faoliyatini baholashda inobatga olinib, har oy yakunida – ichki ishlar vaziri huzurida, har chorak yakunida – Bosh prokuror huzurida, har yarim yilda Bosh vazir huzurida tegishli respublika rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadi, har bir mahalla kesimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib boriladi hamda rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari belgilanishi;

Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuraturaning quyidagi takliflari ma'qullanganligi:

a) viloyatlar markazlari va kriminogen vaziyat og'ir tuman (shahar)lar mahallalarida xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari profilaktika kichik inspektori lavozimini kiritish hamda uning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni yuklash:

mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar, maktab bitiruvchilari hamda talabalar bilan ijtimoiy profilaktika choralari doirasida manzilli ishlarni amalga oshirish;

mahallalar hududida sodir etiladigan ayrim turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha belgilangan tartibda bayonnomalar tuzish;

b) ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tarkibida quyidagi tuzilmalarni tashkil etish hamda manzilli faoliyatini yo'lga qo'yish:

mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli ishlarni tashkil etish, mahalla profilaktika inspektorlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda aniqlangan muammolarni mas'ul idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish choralari ko'rish vazifasini amalga oshiruvchi migratsion profilaktika bo'linmalarini;

mahalla profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy qamoqqa olish jazosi qo'llangan shaxslarni maxsus qabulxonalarga olib borish vazifasini amalga oshiruvchi tumanlararo ma'muriy konvoy guruhlarini;

d) mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2025-yil 1-martdan e'tiboran ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi lavozimini tugatish hamda bo'shayotgan shtat birliklari hisobidan mazkur bandning "a" va "b" kichik bandlarida nazarda tutilgan yangi lavozim va tuzilmalarni tashkil etish;

e) huquqbuzarliklar uchun jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida sinov tariqasida kriminogen vaziyat og'ir hududlardagi profilaktika bo'linmalarida Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ma'muriy amaliyot guruhlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ular zimmasiga profilaktika inspektorlariga tushgan murojaatlar yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan hujjatlarini o'rganib, tarkibida ma'muriy huquqbuzarlik bo'lgan holatlar yuzasidan belgilangan hujjatlarni rasmiylashtirish vazifasini yuklash;

f) ayrim hududlarining kriminogen vaziyat og'ir mahallalarida tashkiliy-shtat tuzilmasi asosida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda beshtagacha mahallani mikrohududlarga birlashtirgan holda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha tezkor harakatlanish tizimini joriy etish;

Bunda:

mahalla huquq-tartibot maskani tashkiliy-shtat tuzilmasiga, qoida tariqasida, mikrohududga xizmat ko'rsatuvchi profilaktika (katta, kichik) inspektorlari, xotin-qizlar masalalari bo'yicha, probatsiya, yo'l harakati xavfsizligi va patrul-post xizmatlari inspektorlari hamda tezkor-qidiruv xizmati xodimi kiritilib, Milliy gvardiya qo'riqlash bo'linmalarining naryadlari doimiy ravishda xizmat olib borishi tashkil etiladi;

mikrohududlarda kunlikjamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olish, shu jumladan, ijtimoiy profilaktika tizimini joyida tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish maqsadida ichki ishlar organlari profilaktika bosh inspektori lavozimi joriy etiladi hamda uning zimmasiga mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatiga rahbarlik qilish vazifasi yuklanadi;

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi tizimi samarali amalga oshirilishi maqsadida shunday tartib o'rnatilganligi, unga muvofiq:

yengil tan jarohati, mayda bezorilik, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, giyohvandlik vositalari va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar noqonuniy muomalasi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar

"E-ma'muriy ish" axborot tizimida ro'yxatdan o'tgan vaqtning o'zida huquqbuzar (jabrlanuvchi)larga nisbatan avtomatik tarzda "E-ijtimoiy profilaktika" axborot tizimida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha xulosa shakllantiriladi va ijroga qaratiladi;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarga nisbatan shakllantirilgan har bir xulosalar ijrosi ustidan kunlik idoraviy nazorat mexanizmlari joriy etiladi;

mahallalarda huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar va ko'maklashuvchi shaxslarning faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlariga (KPI) ijtimoiy profilaktika tadbirlari natijalari kiritiladi hamda baholashda alohida inobatga olinadi;

Bosh prokuraturaga Ichki ishlar vazirligi (B.Abdullayev) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorga muvofiq tasdiqlanadigan hududiy "yo'l xaritalari"da belgilangan chora-tadbirlarning viloyat – tuman – mahalla darajalarida ijrosini qayd etuvchi elektron nazorat platformasini ishlab chiqish va joriy etish yuklatilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 7-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. 2025-yilda viloyat mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda 1-chorakda tuman mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumandagi sektor rahbarlari, Ichki ishlar bo'limi (D.Karimov), Qo'riqlash bo'limi (B.Abdullayev) bilan birgalikda har oyda "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har bir sektorda kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda kamida ikkitadan "namunali xavfsiz ko'cha" va beshtadan "namunali xavfsiz yo'lak" tashkil etish topshirilsin.

5. Tumandagi sektor rahbarlari, Ichki ishlar bo'limi (D.Karimov), tegishli idora va tashkilotlar, bilan birgalikda:

uch kun muddatda tumanda hamda kriminogen vaziyat og'ir mahallalar kesimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori 2-, 3- va 4-ilovalariga asosan 2025-yilning birinchi choragi uchun "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va ijroga qaratilishini ta'minlasin;

bunda, har bir mahalliy davlat organi va muassasa rahbari tomonidan tuman chora-tadbirlar Dasturi va "yo'l xaritalari" ijrosi ustidan doimiy va ta'sirchan idoraviy nazorat o'rnatilsin;

yanvar-aprel oylari mobaynida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi tomonidan jinoyat sodir etilgan mahallalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori 6-ilovasiga muvofiq tartibda ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishlar o'tkazish ishlarida ko'maklashish choralari ko'rsin.

6. Ichki ishlar bo'limi (D.Karimov), tuman prokuraturasi, Qo'riqlash bo'limi bilan birgalikda uch kun muddatda kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish hamda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida sektor rahbarlari, Qo'riqlash bo'limi boshlig'i va Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinbosarlariga mahallalarni nomma-nom biriktirish grafisini ishlab chiqib, tuman hokimi tasdig'iga kiritilsin.

Bunda, mahallalarga biriktiriladigan sektor rahbarlari, Qo'riqlash bo'limi boshlig'i va Ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinbosarlari zimmasiga o'z hududlarida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish namunasini yaratish, "yo'l xaritalari"ning to'laqonli ijro etilishini ta'minlash hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha qat'iy shaxsiy javobgarlikni ta'minlash choralari ko'riilsin.

7. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Absalomov, tuman hokimining o'rinbosarlari (J.Raximov, Yo.Mamitaliyeva), Ichki ishlar bo'limi (D.Karimov), O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov) bilan birgalik mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi va "yo'l xaritasi"da belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlasinlar.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
40-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**2025-yilda Mingbuloq tumani mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar
DASTURI**

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Maqsad	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1	Jinoyatchilikni jilovlash va barvaqt oldini qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash hamda nazorat qilish.	1. Tumanni 2025-yilning birinchi choragi uchun manzilli "yo'l xaritalari" tasdiqlanishini ta'minlash. 2. Har chorak yakunida kelgusi chorak uchun hududiy "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash. 3. Har oyda dastur va "yo'l xaritalari" ijrosining tanqidiy muhokamasini o'tkazish tartibini joriy qilish.	Tumanda manzilli chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirilishini ta'minlash	2025-yil yanvar Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar	Tuman prokuraturasi, Ichki ishlar bo'limi,
2	Kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish.	1. Kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda tuman sektor rahbarlari, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati boshliqlari va ichki ishlar organlari boshliqlari o'rinbosarlarini nomma-nom birlashtirish. Bunda mas'ul rahbarlar zimmasiga: huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartib yaratish; "yo'l xaritalari"ning to'laqonli ijro etilishini ta'minlash hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha qat'iy shaxsiy javobgarlik yuklanadi. 2. Mas'ul rahbarlarning kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda erishgan natijalarini ularning faoliyatini baholashda inobatga olish hamda tizimli ravishda so'rov tartibini joriy etish.	Kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizim yaratish	2025-yil yanvar Doimiy 2025-yil har oy yakuni	Ichki ishlar bo'limi, Qo'riqlash bo'limi (B.Abdullayev) sektor rahbarlari bilan birgalikda

3	<p>“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligi va natijadorligini oshirish choralarini ko‘rish.</p>	<p>1. “Mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida joylarga chiqqan holda o‘qitish choralarini ko‘rish. 2. Ayrim turdagi huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan avtomatlashtirilgan tartibda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun xulosa berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, bunda: “E-ma‘muriy ish” va “E-ijtimoiy profilaktika” elektron platformalarini o‘zaro integratsiya qilish; mazkur platformalarda ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan avtomatik tarzda xulosa rasmiylashtirish modulini ishga tushirish; xulosa rasmiylashtirish va uni ijro qilishda sustkashlikka, mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish. 3. Har chorakda bir marotaba ijtimoiy profilaktika samaradorligi ustidan prokuror nazoratini o‘rnatish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>Ijtimoiy profilaktika tizimini samarali tatbiq qilish</p>	<p>2025-yil fevral 2025-yil dekabr Har chorakda</p>	<p>Tuman prokuraturasi, Ichki ishlar bo‘limi,</p>
4	<p>Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga erishgan “mahalla yettiligi” va sektor rahbarlarini qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirishning yangi tartibini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>1. Har oyda “yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tumanning to‘rtta sektoridagi kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda kamida bittadan “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilish. 2. “Namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilgan, kriminogen vaziyati barqarorlashgan “mahalla yettiligi” va sektor rahbarlarini mahalliy hokimliklar tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish chorasini ko‘rish tartibini joriy qilish. 3. 2025-yil yakuniga qadar barcha kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarning kamida 50 foizida “Xavfsiz ko‘cha”larni tashkil etish choralarini ko‘rish. 4. Har chorakda mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni prokurorlar huzurida muhokama qilinishini ta‘minlash.</p>	<p>Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish uchun “Xavfsiz muhit” konsepsiyasini tatbiq qilish</p>	<p>2025-yil fevral 2025-yil dekabr Har chorakda</p>	<p>Tuman hokimligi (A.Abdusalomov), Ichki ishlar bo‘limi, sektorlar rahbarlari</p>

5	<p>Kriminogen vaziyati og'ir mahallalarida tashkiliy-shtat tuzilmasi asosida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	<p>Kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda tashkiliy-shtat tuzilmasi asosida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda beshtagacha mahallani mikrohududlarga birlashtirgan holda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tezkor harakatlanish tizimini joriy etish.</p>	<p>Mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tezkor harakatlanish tizimini joriy etish</p>	<p>2025-yil aprel</p>	<p>Ichki ishlar bo'limi, Qo'riqlash bo'limi (B.Abdullayev)</p>
6	<p>Huquqbuzarliklarning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnomalar ijrosi ustidan ta'sirchan idoraviy nazorat mexanizmini joriy etish.</p>	<p>1. Huquqbuzarliklarning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnomalarning ijrosini monitoring qilishni yo'lga qo'yish. 2. Ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarga nisbatan shakllantiriladigan har bir xulosalar ijrosi ustidan kunlik idoraviy nazorat mexanizmlarini yo'lga qo'yish. 3. Har chorakda tegishli organlar tomonidan ijro etilmagan taqdimnoma va xulosalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda prokurorga yuborish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p>	<p>Xulosa va taqdimnomalarning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmini joriy etish</p>	<p>2025-yil yanvar Har chorakda</p>	<p>Tuman prokuraturasi, Ichki ishlar bo'limi,</p>

7	<p>Jinoyat va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash</p>	<p>1. Keng auditoriyaga ega bloger va vaynerlar bilan hamkorlikda ijtimoiy roliklar yaratish va uni OAV, rasmiy sahifalar va blogerlarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida namoyish etish choralarini ko'rish. 2. Ta'lim tashkilotlari, mehnat jamoalari va mahallalarda targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish, ayniqsa nuroniylar, din ulamolari va obro'li shaxslarni keng jalb etish amaliyotini qo'yish. 3. Ta'lim tashkilotlari, mehnat jamoalari va mahallalarda targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish, ayniqsa nuroniylar, din ulamolari va obro'li shaxslarni keng jalb etish amaliyotini qo'yish. 4. Dastur ijrosi yuzasidan ko'rsatuv, maxsus reportaj va videolavhalar tayyorlab, efirga uzatib borish hamda ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etish. 5. Hududlarda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'sirchan, manzilli targ'ibot ishlarini olib borish, bunda asosiy e'tiborni "qizil toifa"dagi va kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi voyaga yetmaganlar, xotin-qizlar, tarbiyasi og'ir yoshlar, probatsiya hisobidagi shaxslarga qaratish.</p>	<p>Jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining samaradorligini oshirish</p>	<p>2025-yil yanvar, mart, iyun, sentyabr 2025-yil yanvar-noyabr 2025-yil fevral Doimiy ravishda 2025-yil yanvar Doimiy ravishda</p>	<p>Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (M.Mamasobirov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), Axborot xizmati (Sh.Kenjayeov), Adliya bo'limi (A.Qodirov)</p>
---	--	---	---	--	---

8	<p>Mahallalarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati imkoniyatlaridan keng foydalanishni ta'minlash.</p>	<p>1. Mahallalarda xonadonlar, savdo do'konlari va maishiy xizmat ko'rsatish hoxobchalari, bozorlar va savdo komplekslari, kafe, bar, restoran va boshqa jamoat joylarini xatlovdan o'tkazish. 2. Javobgarlik hududida dastlab "qizil toifa"dagi mahallalardagi, so'ng qolgan barcha mahallalardagi ob'ektlarni bosqichma-bosqich shartnoma asosida qo'riqlovga olish choralari belgilash. Bunda: ob'ektlarni qo'riqlashning texnik vositalari bilan jihozlash, "tashvish tugmalari"ni o'rnatish, ularni texnik qo'riqlash markazlariga ulash va qo'riqlash-patruil xizmatini tashkil etishga alohida urg'u berish; mahallalarda fuqarolarni ogohlikka chaqiruvchi "Hudud kamera nazoratida!", "Obyekt qo'riqlovda!" va "Xonadon qo'riqlovda!" kabi stikerlarni joylashtirish. 3. Milliy gvardiya Qo'riqlash xizmatining afzalliklarini aholiga yetkazish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlari natijadorligini oshirish, jumladan eng taniqli bloger va vaynerlar imkoniyatidan keng foydalanish choralari ko'rish.</p>	<p>Mahallalardagi barcha ob'ektlarni to'liq qo'riqlovga olish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga erishish</p>	<p>2025-yil yanvar 2025-yil 15-yanvar doimiy Har oyning 20-sanasisiga</p>	<p>Qo'riqlash bo'limi (B.Abdullayev), Ichki ishlar bo'limi</p>
9	<p>Mahallalarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va tezkor fosh etish maqsadida zamonaviy videokuzatuv kameralari imkoniyatlaridan keng foydalanishni ta'minlash.</p>	<p>1. Mahallalarning kirish-chiqish joylariga bosqichma-bosqich yuzni va transport vositalarni tanib oluvchi kameralarni o'rnatish, IIB va Milliy gvardiya monitoring markazlariga hamda profilaktika inspektorlari xizmat planshetlariga integratsiya qilish choralari ko'rish. Bunda dastlab 2025-yilning birinchi yarim yilligida "qizil toifa"ga kiritilgan mahallalarning 50 foiziga, ikkinchi yarim yilligida qolgan 50 foiziga o'rnatish. 2. Jamoat joylarida, ayniqsa jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylar va "jinoyat o'choqlari"da yoritish chiroqlarini o'rnatish qamrovini oshirishni ta'minlash, bunda birinchi navbatda "qizil toifa"ga kiritilgan mahallalarda yoritish chiroqlarini o'rnatish bo'yicha kunlik monitoring qilish. Ko'p qavatli uylarning yo'laklar kirish eshiklarida zamonaviy domofon vositalarini o'rnatish amaliyotini keng joriy etish</p>	<p>Mahallalarda "Xavfsiz raqamli mahalla" konsepsiyasini joriy etish</p>	<p>2025-yil iyun, dekabr 2025-yil yanvar Doimiy 2025-yil fevral – dekabr</p>	<p>Qo'riqlash bo'limi (B.Abdullayev), Ichki ishlar bo'limi, tuman hokimligi (A.Abdusalomov) O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xydoyberdiyev)</p>

<p>Yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish.</p>	<p>1. Yoshlar, ayniqsa “og‘ir toifa”dagi yoshlar (profilaktik hisobdagi, uyushmagan yoshlar, muqaddam jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan va boshqa) bilan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni kuchaytirish. Bunda: ularni kasb-hunarga o‘qitish, chet tillarini o‘rgatish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga; “og‘ir toifa”dagi yoshlarning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal qilish, sog‘lig‘i va boshqa hayotiy ehtiyojlarini qondirishga; ularni tarbiyalashda malakali psixologlar imkoniyatidan foydalangan holda ijtimoiylashuvini ta‘minlashga ustuvorlik berish.</p> <p>2. Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilar bilan ishlarni “Maktab – mahalla – oila” tamoyili asosida tashkil etish. Bunda: maktablarda “davomat”, “o‘quvchi”, “o‘smir” va boshqa profilaktik tadbirlarni muntazam (davriy) ravishda o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish; muntazam dars qoldiruvchi, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan, ota-onasi uzoq muddatga chet elga ketgan hamda tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarga alohida e‘tibor qaratish;</p> <p>ijtimoiy ko‘makka muhtoj o‘quvchilarni hokimliklarning va mahalla faollari bilan hamkorlikda muammolarini hal qilish choralarini ko‘rish;</p> <p>haftaning payshanba kunlarini “huquqbuzarlik profilaktikasi kuni” sifatida belgilab, o‘quvchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo‘yicha ta‘sirchan tadbirlarni o‘tkazish; har oyda kamida bir marotaba sektor rahbarlari bilan “Rahbar va yoshlar uchrashuvlari”ni tashkil etish orqali maktab o‘quvchilari muammolarini joyida hal qilishni ta‘minlash.</p>	<p>Yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasi samaradorligini oshirish</p>	<p>2025-yil yanvardan boshlab doimiy</p> <p>2025-yil yanvardan doimiy</p>	<p>Tuman hokimligi (J.Raximov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (M.Mamasobirov), Qo‘riqlash bo‘limi (B.Abdullayev), Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (O.Xujayev)</p>
---	---	---	---	---

1 1	Xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish choralarining natijadorligini oshirish	<p>1. Xotin-qizlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish. Bunda: kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi ijtimoiy ko'makka muhtoj xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish; yil yakuniga qadar tumandagi kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi xotin-qizlar muammolarini hal qilish choralarini ko'rish.</p> <p>2. Oila va xotin-qizlar bo'limlari huzuridagi "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari" faoliyatini "oila – mahalla – ta'lim muassasasi" tamoyili asosida tashkillashtirishning sifat indikatorlarini belgilash, faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish. Bunda: nizoli (shu jumladan sudlarda) va ajrim yoqasidagi oilalar bilan ishlashda "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi" rolini oshirishga; ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda nikoh qurish arafasidagi yoshlar bilan ishlashga; tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlarning muammolarini bartaraf etish choralarini ko'rishga, ular bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun profilaktika inspektoriga taklif kiritishga; xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, shuningdek, onalik va bolalikni muhofaza qilishga ustuvorlik berish.</p> <p>3. Har bir tumanlarda malakali psixolog, shifokor, huquqshunos, pedagog, otinoyi, "oqila ayollar" harakati a'zolari va boshqa ijtimoiy faol ayollardan iborat profilaktik, axborot-ma'rifiy komandalarni shakllantirish va targ'ibot kompaniyalarini kuchaytirish.</p>	Oilalarda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish	2025-yil yanvar Har oyning 25-sanasiga 2025-yil fevralnoyabr	Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi (Yo.Mamitaliyeva)
--------	--	--	---	--	--

1 2	Ish bilan band bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ularning bandligini ta'minlash choralari kuchaytirish	<p>1. "Qizil toifa"dagi va kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi ish bilan band bo'lmagan shaxslar ro'yxatini shakllantirish va manzilli ishlarni tashkillashtirish.</p> <p>2. Mazkur toifadagi shaxslarning bandligini ta'minlash, kasbga o'qitish, kasbga yo'naltirish choralari ko'rish. Bunda: 2025-yil yakuniga qadar kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi barcha shaxslarni ish bilan ta'minlashga erishish; mazkur vazifani birinchilardan bo'lib bajargan mansabdor shaxslarni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish, sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbarlarni javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish.</p> <p>3. Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni kasblarga o'qitish, tayyorlash hamda xorijiy davlatlarga yuqori daromadli ishga yuborish. Bunda: har bir hudud bo'yicha fuqarolarni xorijiy davlatlarga yuborish bo'yicha aniq miqdor/sifat ko'rsatkichlari (KPI)ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; ularni yuborilayotgan mamlakat qonunchiligi, urf-odatlar bilan tanishtirish, til o'rgatish va kasbga tayyorlash choralari ko'rish; ishga yuborish uchun qonuniy mexanizmlarni ishlab chiqish va hujjatlarni rasmiylashtirishga yaqindan yordam berish.</p>	<p>Kriminogen vaziyati og'ir mahallalardagi shaxslarning bandligini ta'minlash</p> <p>Xorijiy davlatlardagi yuqori daromadli ishlariga yuborish orqali aholining bandligini ta'minlashga erishish</p>	<p>2025-yil fevral-noyabr</p> <p>2025-yil fevral-noyabr</p>	<p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), tegishli tashkilotlar</p>
1 3	Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan takroriy jinoyat sodir etilishining oldini olish va ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash samaradorligini oshirishni ta'minlash.	<p>1. Muqaddam sudlangan va ma'muriy nazoratdagi shaxslar bilan ishlash natijadorligini oshirish. Bunda: har bir mahalladagi mazkur toifadagi shaxslar bo'yicha manzilli ishlash rejalarini tasdiqlash; haftada kamida bir marotaba ularning holidan xabardor bo'lish; mazkur toifadagi shaxslarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy muammolaridan doimo xabardor bo'lish va yordam ko'rsatish; ularni kasbga o'qitish, kasbga yo'naltirish choralari ko'rish.</p> <p>2. Mazkur toifadagi shaxslarni mahalla faoliyatiga jalb qilish va jamiyatga yaqinlashtirish choralari ko'rish.</p>	<p>Muqaddam sudlangan shaxslar jinoyatchiligini oldini olish</p>	<p>2025-yil yanvar</p> <p>Har oyning 25-sanasiga</p> <p>doimiy</p> <p>2025-yil fevral-noyabr</p>	<p>Ichki ishlar bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov)</p>

2025 yilda 1-chorakda Mingbuloq tumani mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan ASOSIY MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

№	Tadbirlar nomi	Mingbuloq tumani
1	Mahallalardagi aholi gavjum joylar va ko'chalariga videokuzatuv kameralarini o'rnatish	100
2	Mahallalardagi ko'p qavatli uylarning hovlilariga PTZkameralarini o'rnatish	3
3	Mahallalarning asosiy kirishchiqish joylariga yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi kameralar o'rnatish	25
4	Tumanlardagi savdo markazlari va bozorlarga yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi kameralar o'rnatish	2
5	Mahallalardagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining kirish-chiqish joylariga (tashqi tomonda) PTZ-kameralarini o'rnatish	18
6	Mahallalardagi maktablarning ochiq sport maydonlariga PTZ-kameralarini o'rnatish	7
7	Mahallalardagi ko'p qavatli uylarning eshiklariga zamonaviy domofon komplekslarini o'rnatish	25
8	Mahallalardagi ko'p qavatli va yakka tartibdagi xonadonlarni Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati tomonidan texnik qo'riqloviga olish	200
9	Mahallalardagi ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklari oldiga tashvish tugmalarini o'rnatish	7
10	Mahallalardagi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini Milliy gvardiya Qo'riqlash xizmati tomonidan texnik qo'riqloviga olish	18
11	Mahallalarda "namunaviy xavfsiz ko'cha"larni tashkil etish	25
12	Mahallalarda "namunaviy xavfsiz yo'lak"larni tashkil etish	50